**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING**

# QARORI

2026-yil 5-mart | 86-9-0-Q/26 | Sirdaryo viloyati hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston–2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-22-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston–2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-22-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6- va $21^{1}$-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston–2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-22-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

mahallani rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ustuvor islohotlar, iqtisodiy, kasblarni rivojlantirish bo‘yicha, ekologik muvozanatni ta’minlash va suvdan oqilona foydalanishni tashkil etish bo‘yicha, davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar belgilab berilganligi;

mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish va ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturi 1-ilovaga;

iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish hamda ichki bozorda talabni rag‘batlantirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturi 2-ilovaga;

kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturi 3-ilovaga;

ekologik muvozanatni ta’minlash va suvdan oqilona foydalanishni tashkil etish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturi 4-ilovaga;

davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish, jamiyatda birdamlikni ta’minlash orqali uni yuksaltirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturi 5-ilovaga;

“O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda – Davlat dasturi) amaliy tadbirlar rejasi 6-ilovaga;

ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati 7-ilovaga;

strategik normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati 8-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyatda mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish va ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

viloyatda iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish hamda ichki bozorda talabni rag‘batlantirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq;

ekologik muvozanatni ta’minlash va suvdan oqilona foydalanishni tashkil etish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq;

davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish, jamiyatda birdamlikni ta’minlash orqali uni yuksaltirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 4-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida viloyat amaliy tadbirlar rejasi 5-ilovaga;

“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlarini ijrosini ta’minlash va monitoringini yuritish bo‘yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar:

(a) Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (F.Kushakov, A.B.Xidirov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (U.Xatamov) mahalladagi islohotlar dasturi ijrosini ta’minlash va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish;

(b) Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (F.Kushakov, B.Xudjamov), Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi (N.Sulaymanov) iqtisodiy islohotlar dasturi ijrosini ta’minlash va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish;

(d) Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (A.Xidirov, A.Xidirov) Ekologiya va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (D.Elmuradov), Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (N.Atakulov), “Hududgaz ta’minot” AJ “Hududgaz Sirdaryo gaz” filiali (J.Xidirov) bilan birgalikda ekologik muvozanatni ta’minlash va suvdan oqilona foydalanishni tashkil etish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturi ijrosini ta’minlash;

(e) Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (F.Kushakov, A.Xidirov, B.Xudjamov, A.Xidirov, O.Mavlonberdiyev, N.Tojibayeva, Sh.Isakulov), tuman va shahar hokimliklari, mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda “O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida amalga

oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (F.Kushakov, A.Xidirov, B.Xudjamov, A.Xidirov, O.Mavlonberdiyev, Sh.Isakulov, N.Tojibayeva, F.Raximov), tuman va shahar hokimliklariga islohotlar dasturlarini hududlar kesimida amalga oshirish bo‘yicha shaxsiy mas’uliyat yuklansin.

6. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Mirzayev), “Yangi Sirdaryo” va “Новая Сырдарья” gazetalari tahririyati (B.Baymuratov) mazkur qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish hamda davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumotlarni aholiga tezkorlik bilan yetkazilishini ta’minlasin.

7. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari F.Kushakov islohotlar dasturlarida nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida, sifatli va so‘zsiz ijrosini ta’minlash, bu borada boshqarma, tashkilot va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, ijro holatini qat’iy nazoratga olish uchun shaxsan mas’ul etib belgilansin.

8. Viloyat hokimligining axborot-tahlil guruhi, Islohotlar shtabi guruhi qaror ijrosini muvofiqlashtirib, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirgan holda har oy yakunida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligiga axborot kiritib borsin.

9. Ushbu qaror yuboriladigan davlat idoralari ro‘yxati 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Sirdaryo viloyati hokimi** **E.Turdimov**

SNK6902

Sirdaryo viloyati hokimining
2026-yil 5-martdagi
86-9-0-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Viloyatda mahalla infratuzilmasini yanada takomillashtirish va ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar**
**REJASI**

| T/r | Islohot mazmuni | Islohotni amalga oshirish shakli va mexanizmlari | Moliyalashtirish manbalari | Ijroni boshlash muddati | Ijrochilar | Yil yakuni bo‘yicha erishiladigan natija |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organi va tashkilot** – Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi* | | | | | | |
| 1. | Mahallalarga **o‘z muammolarini mustaqil hal etishi uchun moliyaviy imkoniyatlarni** kengaytirib, **qo‘shimcha manbalar** yaratish. | **1.** Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘larini **qo‘shimcha ravishda quyidagilar hisobidan** shakllantirish amaliyotini yo‘lga qo‘yish:<br>– jismoniy shaxslardan olinadigan **mol-mulk** va **yer solig‘i** bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) **15 foizi**;<br>– mahalla hududida sanitariya, noqonuniy qurilish bo‘yicha undiriladigan jarimalarning **10 foizi**.<br>**2.** Jamg‘arma mablag‘lari sarflanadigan **qo‘shimcha yo‘nalishlar** etib quyidagilarni | Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi | 2026-yil 1-oktabr | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Soliq boshqarmasi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining viloyat boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, tuman va shahar | **1.** Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasiga qo‘shimcha mablag‘ tushishi uchun sharoit yaratiladi.<br>**2.** Jamg‘armaga tushgan jami mablag‘lar shu jumladan, **quyidagi masalalarni hal etishga** yo‘naltiriladi:<br>– **221 ta** mahallaga **120 ming** dona tungi yoritish chiroqlari o‘rnatiladi;<br>– **12 ta** mahallada ichki yo‘llar shag‘allashtiriladi;<br>– **40 ta** mahallada salomatlik yo‘lakchalari barpo etiladi;<br>– **35 ta** mahallada |

SNK6902

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | belgilash:<br>– mahalla hududidagi **ichki yo‘llarni shag‘allashtirish**;<br>– **piyodalar yo‘lakchalarini** barpo etish va ta’mirlash;<br>– **tungi yoritish chiroqlarini** o‘rnatish;<br>– mahalla fuqarolar yig‘ini **binosini qurish**, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta’mirlash hamda jihozlash;<br>– mahalla hududini **obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish** hamda **ommaviy hasharlar o‘tkazish** uchun zarur bo‘lgan tovar (ish, xizmat)lar xarid qilish.<br>**3.** Mahalla raislarining mahalla mablag‘larining sarfi bo‘yicha **har chorakda ommaga ochiq hisobot berishi** amaliyotini yo‘lga qo‘yish. | | | hokimligi | bolalar maydonchalari tashkil etiladi;<br>– **24 ta** mahalla binolari ta’mirlanadi va jihozlanadi;<br>– **22 ta** yangi mahalla binolari qurilib, foydalanishga topshiriladi.<br>**3.** Mahalla mablag‘larining sarfi bo‘yicha har chorakda ommaga ochiq hisobot berish amaliyoti kiritilib, mablag‘lar sarflanishi ustidan **jamoatchilik nazorati** o‘rnatiladi. |
| ***Ijro uchun mas’ul tashkilot va davlat organi*** *– O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi va Boshqaruv samaradorligi agentligining viloyat filiali* | | | | | | |
| 2. | **“Mahalla yettiligi”** faoliyatini tashkil etish jarayonlarini isloh qilish. | **1. Mahallada** eksperiment tariqasida **“mahalla yettiligi” vakillarini** ularning **o‘zi istiqomat qilayotgan** va **yondosh mahalladan** tayinlash amaliyotini joriy etish.<br>**2.“Mahalla yettiligi”** a’zolarini **yig‘ilishlar** va **boshqa tadbirlarga jalb qilish** faqat **fuqarolar yig‘ini raisining ruxsati** bilan amalga oshirishni | – | 2026-yil 1-iyul | Adliya boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari | **1.** “Mahalla yettiligi” faoliyatini tashkil etishda **fuqarolar yig‘ini raisining roli** keskin oshiriladi.<br>**2.** “Mahalla yettiligi” vakillarini lavozimga tayinlashda tegishli **hudud, umuman mahalladagi real holatni bilgan** mutaxassislarni |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | yo‘lga qo‘yish, ularning vazifa va faoliyat yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan vazifalarni yuklashni qat’iy taqiqlash.<br>**3.** O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tomonidan mazkur talabni buzganligi uchun davlat organlari va tashkilotlari **mas’ul va mansabdor shaxslarini egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo‘lgan jazo choralarini qo‘llash** bo‘yicha har oyda Bosh vazirga takliflar kiritib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish. | | | | saralash imkoniyati yaratiladi.<br>**3. “Mahalla yettiligi”** vakillariga **o‘z faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan** topshiriqlarni yuklash taqiqlanadi, ular faoliyatini samarali tashkil etishning huquqiy asoslari takomillashtiriladi. |
| ***Ijro uchun mas’ul tashkilot va davlat organlari*** *– O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi* | | | | | | |
| 3. | Mahalla xodimlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, ularning bilim va ko‘nikmalarini doimiy rivojlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish. | **1. Mahallani rivojlantirish milliy institut**ni (keyingi o‘rinlarda – Milliy institut), viloyatda **hududiy filiallarini tashkil etish**.<br>**2.** Mahalla fuqarolar yig‘ini raislari hamda mahalla tizimidagi rahbar va mutaxassis kadrlarning aniq reja-grafikka asosan **bir yilda bir marta malakasini oshirish tizimini** joriy qilish.<br>**3.** Milliy institutda **“Mahalla boshqaruvi”, “Hududiy rejalashtirish va rivojlanish”, “Liderlik va barqaror rivojlanish”, “Ijtimoiy loyihalarni boshqarish va muvofiqlashtirish”** ta’lim | Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi | 2026-yil 1-mart | Kasbiy ta’lim boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat hududiy boshqarmasi, tuman va shaharlar hokimliklari | **1.** Mahalla tizimi xodimlari va **“mahalla yettiligi” vakillari** malakasini oshirish tizimi va magistratura ta’lim mutaxassisligi joriy etiladi.<br>**2. 2026/2027-o‘quv yilidan** boshlab mahalla tizimi xodimi va “mahalla yettiligi” vakili magistraturada o‘qishi tashkillashtiriladi. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | mutaxassisliklari bo‘yicha magistratura bosqichida quyidagi shartlarda o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish:<br>– ishlab chiqarishdan **ajralgan** holda **bir yillik**;<br>– ishlab chiqarishdan **ajralmagan** holda **ikki yillik** o‘qitish tizimi.<br>**4.** O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tomonidan **Milliy institutga** uning faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun **5 milliard so‘m** mablag‘ ajratish.<br>**5.** Milliy institut va uning hududiy filiallarini bino bilan ta’minlash. | | | | |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organi*** – *Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi* | | | | | | |
| 4. | Mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish uchun mablag‘lar yo‘naltirish hamda ularning samaradorligi va natijadorligini qat’iy nazorat qilish. | **1.** Quyidagi yo‘nalishlar uchun mablag‘larni ajratish:<br>– **“Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman (shahar)” maqomi** berilgan tuman (shahar)larni **rivojlantirish**;<br>– **sanoat**, **qishloq xo‘jaligi** hamda **xizmat ko‘rsatish** sohalarida **tadbirkorlikni rivojlanishiga** turtki beruvchi **drayver** loyihalar uchun zarur infratuzilmani yaratish;<br>– Toshkent shahrida **mahallalarni obodonlashtirish**, **turizm** va **gastronomik ko‘chalarni** kengaytirish hamda **sug‘orish** | Davlat budjeti, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar | 2026-yil davomida | Tuman va shahar hokimliklari, viloyat prokuraturasi, tegishliligi bo‘yicha boshqarma va tashkilotlar | Mablag‘larning mahallalar markazini shakllantirish, mikrosanoat, hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish markazlari, kichik bozor, kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish, ichki yo‘llarni yaxshilashga sarflanishi ta’minlanadi. |

SNK6902

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **tizimini** rivojlantirish;<br>– **“Tashabbusli budjet”** tadbirlari uchun;<br>– **“Mahalla budjeti” jamg‘armasi** mablag‘larini shakllantirish;<br>– **eng yaxshi soliq to‘lovchi mahalla**ga **2 milliard** so‘mdan ajratish;<br>– **ichki yo‘llarni** ta’mirlash;<br>– Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish.<br>**2.** Hisob palatasi tomonidan ajratilgan mablag‘larning samarali va qonuniy sarflanishi yuzasidan **har chorakda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borish. | | | | |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organi*** *– O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi* | | | | | | |
| 5. | Mahallalardagi masalalarni ularning o‘zida fuqarolar ishtirokida hal etish bo‘yicha **“Mahallam – loyiham”** dasturini amalga oshirish. | **1. “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman (shahar)” maqomi** berilgan hududlardagi mahallalarda eksperiment tariqasida ijtimoiy, iqtisodiy yoki ekologik yo‘nalishdagi masalalarni *(kanalizatsiya, ko‘chani yoritish, bolalar maydonchasi, daraxt ekib, bog‘ yaratish, yoshlar va tadbirkorlar markazini ishga tushirish)* ovoz berish orqali hal | Davlat grantlari, homiylik va xayriya mablag‘lari | 2026-yil 1-aprel | Tuman va shahar hokimliklari, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi | **1.** Mahallada fuqarolarning tashabbusi va ijtimoiy faolligi ortadi.<br>**2.** Tegishli mahallalarda **yiliga kamida 1-2 ta tashabbusli loyiha** amalga oshirilishi ta’minlanadi.<br>**3.** Fuqarolar nafaqat muammoni, balki **uning yechimini ham tashabbus qilishi** amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. |

SNK6902

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | etish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.<br>**2.** Tegishli mahalla aholisi uchun **loyihalarga ovoz berish** jarayonlarini **“Raqamli mahalla” platformasi orqali** amalga oshirish imkoniyatini yaratish.<br>**3.** Ovoz yig‘ish orqali g‘olib bo‘lgan **loyihalarni amalga oshirish jarayonlarini** tashkillashtirish hamda **mahallalar kengashlari** tomonidan ularni nazorat qilish va **aholiga shaffof hisobot taqdim etish** tartibini joriy etish. | | | | **4.** Har bir mahalla **o‘z loyihasini** (ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy) ishlab chiqadi. |

Sirdaryo viloyati hokimining
2026-yil 5-martdagi
86-9-0-Q/26-son qaroriga
2-ilova

**Viloyatda iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish hamda ichki bozorda talabni rag‘batlantirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar**
**REJASI**

| T/r | Islohot mazmuni | Islohotni amalga oshirish shakli va mexanizmlari | Moliyalashtirish manbalari | Ijroni boshlash muddati | Ijrochilar | Yil yakuni bo‘yicha erishiladigan natija |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organlari** – Viloyat hokimining o‘rinbosari (B.Xudjamov) hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi* | | | | | | |
| 1. | Iqtisodiyotga **1,5 milliard dollar** miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. | **1**. Yuqori qo‘shilgan qiymatga ega jahon bozorlarida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlovchi **loyihalarni amalga oshirish** uchun jami **1,5 milliard dollar** miqdorida xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish.<br>**2**. Tasdiqlangan tarmoq jadvallari asosida raqamli platforma (PMI.miit.uz) orqali **oylik monitoringni** amalga oshirish. | Xorijiy investorlar va kreditorlar | 2026-yil davomida | Tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari | **1**. Jami **1,5 milliard dollar** xorijiy investitsiyalar jalb qilinadi va o‘sish sur’ati **150 foiz**ga yetkaziladi.<br>**2.** Sohalar kesimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni:<br>– **xizmatlar sohasida – 81,6 million dollar;**<br>– **sanoatda – 1,1 milliard dollar;**<br>– **qishloq xo‘jaligida** – **281,2 million dollarga** yetkazish. |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organlari** – Viloyat hokimining o‘rinbosari (B.Xudjamov) hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi* | | | | | | |
| 2. | Investitsiya **g‘oyasidan eksport** ko‘rsatkichiga erishish jarayonlarini to‘liq axborot platformada *(PMI.miit.uz va eksport.miit.uz)* amalga oshirish. | **1.** Investitsiya g‘oyasini shakllantirish, kelishish, muzokaralar o‘tkazish, loyiha monitoringi va post monitoringi bo‘yicha vazirlik va idoralar vazifalarini belgilovchi | Tegishli boshqarma va idoralarning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan | 2026-yil 1-mart | Tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari | Davlat organlarining loyihalarni amalga oshirishda proaktiv ko‘maklashishi va **to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtiroki ta’minlanadi**. |

SNK6902

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | tartibni tasdiqlash.<br>**2.** Investitsiya faoliyati sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, investorlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, investitsiya loyihalari samarali amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida raqamli platformaga (PMI.miit.uz) barcha davlat interaktiv xizmatlarini integratsiya qilish hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali zarur xizmatlar yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash. | | | | |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organlari*** *– Viloyat hokimining o‘rinbosari (B.Xudjamov) hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi* | | | | | | |
| 3. | “**Invest.gov.uz**” platformasini takomillashtirish. | **1.** Tegishli boshqarma va idoralar tomonidan ISSV tasdiqlagan shaklga asosan Brownfield/Greenfield loyihalarini “**Invest.gov.uz**” platformasiga kiritishni ta’minlash.<br>**2.** ISSVga “**Invest.gov.uz**” platformasini texnik qo‘llab-quvvatlash uchun tizim administratori, axborot xavfsizligi va kontent menejerlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | Budjet mablag‘lar hisobidan | 2026-yil 1-mart<br><br>2026-yil sentabr | Tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari | **1.** Xorijiy va mahalliy investorlar uchun mavjud yer maydonlari va bo‘sh turgan binolar haqida tezkor va ishonchli ma’lumot olish imkoniyati kengayadi.<br>**2.** Yagona shakl asosida ma’lumot kiritilishi loyihalarning xalqaro standartlarga mos kelishini ta’minlaydi. |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organlari*** *– Viloyat hokimining o‘rinbosari (A.Xidirov) hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi* | | | | | | |
| 4. | 2026-yilda qurilish ishlari hajmini | **1.** Hududlarda uy-joy qurilish ko‘lamini oshirish va | Davlat va mahalliy budjet | 2026-yil 1-martdan | Iqtisodiyot va moliya bosh | **1. Jami 3,5** ming xonadonli yangi uy-joylar foydalanishga |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | **15 foizga ko‘paytirib, 697 million dollarga** yetkazish. | renovatsiya dasturlarini amalga oshirishni kengaytirish.<br>**2.** Ijtimoiy obyektlar va infratuzilma obyektlari qurilishi hajmini, jumladan xalqaro moliya institutlari va tashabbuskor investorlar hisobidan kengaytirish. | mablag‘lari, xorijiy va mahalliy investorlar mablag‘lari, Loyiha tashabbuskorining mablag‘lari, tijorat banklari kreditlari | boshlab yil davomida | boshqarmasi, Transport boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari | topshiriladi.<br>**2.** Uy-joy ipotekasiga resurs ajratiladi va uy-joy sotib olishda boshlang‘ich to‘lov va foiz to‘lovlarining bir qismini qoplash maqsadida subsidiya beriladi. |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organlari*** *– Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Kushakov)* | | | | | | |
| 5. | 2026-yilda xususiy sektor tomonidan **10 million dollarlik 300 tadan ziyod yangi servis obyektlari**ni ishga tushirish uchun sharoitlar yaratish. | **1.** Hududlarda turizm yangi servis obyektlarini tashkil etish uchun bo‘sh yer maydonlarini “E-auksion” va “K-SAVDO” platformalari orqali auksion savdolariga chiqarish.<br>**2.** Turizm maskanlarini tashkil qilish uchun kelgusi uch yilda **yer maydonini auksionga** chiqarish.<br>**3.** Yil yakuniga qadar **300 nafardan** ziyod yangi servis obyektlari ishga tushirilishini ta’minlash. | Tadbirkorlar o‘z mablag‘lari hisobidan | 2026-yil 1-martdan boshlab yil davomida | Tuman va shahar hokimliklari, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Kadastr agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Soliq boshqarmasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Turizm boshqarmasi | **1.** 2026-yil yakuniga qadar **10 million dollarlik 300 tadan** ziyod yangi servis obyektlari ishga tushiriladi.<br>**2.** Xizmatlar sohasida **13,1 foizga** o‘sish ta’minlanadi.<br>**3** Turizmga ixtisoslashgan mahallalarda **2 ta infratuzilma loyihalarini** amalga oshirish hisobiga servis obyektlari ishga tushiriladi. |
| 6. | 2026-yilda **xizmatlar bozorini 1,4 milliard dollardan** oshirish. | **1.** Hududlar (shu jumladan, tuman va shahar) kesimida 2026-yil yakuniga qadar xizmatlar bozorini **1,4 milliard dollar**dan oshirish bo‘yicha choraklik prognoz parametrlarini ishlab chiqish. | - | 2026-yil 1-mart | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari | **1.** Aholi gavjum ko‘chalarda hamda yo‘l va sohil bo‘yida **6 ta infratuzilma loyihalarini** amalga oshirish hisobiga amalga oshirilgan loyihalar hisobiga savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari tashkil etiladi. |

SNK6902

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **2.** Prognoz parametrlarni tasdiqlash va ijrosini ta'minlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>**3.** Prognoz parametrlari ijrosi bo'yicha doimiy monitoring o'rnatish. | | 2026-yil 1-mart<br><br>Doimiy | | **2.** Turizmga ixtisoslashgan mahallalarda **2 ta infratuzilma loyihalarini** amalga oshirish hisobiga servis obyektlari ishga tushiriladi. |
| ***Ijro uchun mas'ul davlat organlari*** – *Viloyat hokimining o'rinbosari (A.Xidirov) va Transport boshqarmasi* | | | | | | |
| 7. | Andijon bilan Qo'ng'irotni, Toshkent bilan Termizni, Samarqand bilan Shahrisabzni, Olot bilan Sariosiyoni bog'laydigan uzunligi **4 ming km magistral yo'llarni xalqaro talablarga mos "avtoban"**larga aylantirish. | **1.** 2026-2030-yillarda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish dasturini ishlab chiqish.<br>**2.** Dastur doirasida magistral yo'llarni xalqaro talablarga moslashtirish loyiha hujjatlarini ishlab chiqish.<br>**3.** Dastur doirasida 2026-yil uchun belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishini ta'minlash. | Davlat budjeti va xalqaro moliya institutlari mablag'lari | 2026-yil 1-mart<br><br>2026-yil davomida<br><br>2026-yil davomida | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari | Yo'l xo'jaligi sohasini zamonaviy bosqichga olib chiqish, jumladan, xalqaro avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish orqali respublikaning tranzit salohiyatini yanada oshirish, avtomobil yo'llari sifatini yaxshilashga erishiladi. |
| ***Ijro uchun mas'ul davlat organlari*** – *Viloyat hokimining o'rinbosari (A.Xidirov), Qishloq xo'jaligi boshqarmasi* | | | | | | |
| 8. | **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini** hozirgi **1,7 milliarddan 2030-yilgacha 2,1 milliard dollarga** yetkazish bo'yicha islohotlarni boshlash. | **1.** Paxtachilikda tezpishar, hosildorligi **50-60 sentner** bo'lgan, tola chiqimi **33-35** foizdan kam bo'lmagan navlarni joylashtirish, shuningdek, paxta maydonlarining 80 foiziga zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni joriy etish.<br>**2.** G'allada tuproq-iqlim sharoitga mos stress omillarga | Davlat budjeti, xorijiy hamkor tomonidan jalb qilingan va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar | 2026-yil 1-mart | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari | Oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **4,2 trillion** so'mga yetkaziladi.<br>**1.** Umumiy paxta maydonlarining **80 foiziga** tezpishar, hosildorligi **50-60 sentner** bo'lgan tola chiqimi **33-35 foizdan** kam bo'lmagan navlarni joylashtirish, shuningdek, paxta maydonlarining |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | bardoshli tindirilgan bug‘doy navlarini ekish, zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni keng joriy etish natijasida hosildorlikni **90-100 sentnerga yetkazish.**<br>**3.** Intensiv sabzavot maydoni **2 755** gektarga kengaytirilib, ushbu maydonlarda hosildorlik bo‘yicha **400-450 s/ga** erishish.<br>**4. 1,1 ming** gektar sanoatlashgan mevali bog‘ va **102** gektar yangi tokzorlarni barpo etish.<br>**5.** Bog‘lar maydonini **6,1 ming** gektarga, hosildorlikni o‘rtacha **158 s/ga**, tokzorlar maydonini **2,5 ming** gektarga, hosildorlikni o‘rtacha **172 s/ga** yetkazish.<br>**6.** Qishloq xo‘jaligida texnika parki har yili yangilanib, texnika ta’minotini **83 foizdan 90 foizga**, paxtani mashinada terib olish darajasini **892 foizga** yetkazish.<br>**7. 3,3 ming** gektar yerlarni qayta foydalanishga kiritish.<br>**8.** Qayta ishlash ko‘rsatkichlari **donda 78,0** foiz, **meva-sabzavotda 36,2** foiz, **go‘shtda 70,4** foiz, | | | | **80 foizga** zamonaviy intensiv agrotexnologiyalar joriy etiladi.<br>**2.** G‘allada tuproq iqlim sharoitga mos stress omillarga bardoshli tindirilgan bug‘doy navlari ekilib, zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni keng joriy etish natijasida hosildorlik **90-100 sentnerga** yetkaziladi.<br>**3.** Intensiv sabzavot maydonlari **2 755** gektarga yetkazilib, ularda hosildorlik **400-450 s/ga** erishish imkoniyati yaratiladi.<br>**4. 1,1 ming** gektar sanoatlashgan mevali bog‘ va **102** gektar yangi tokzorlar barpo etiladi<br>**5.** Eski **568** gektar bog‘lar va **102** gektar tokzorlar rekonstruksiya qilinadi.<br>**6.** Texnika ta’minotini **90 foizga**, paxtani mashinada terib olish darajasi **92 foizga** yetkaziladi.<br>**7. 3,3 ming** gektar yerlar qayta foydalanishga kiritiladi.<br>**8.** Qayta ishlash ko‘rsatkichlari **donda 78 foiz**, **meva-sabzavotda 36,2 foiz**, **go‘shtda 70,4 foiz**, **sutda 18,5 foizga** yetkaziladi.<br>**9.** Oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **sutda 18,5** foizga yetkazish. | | | | hajmi **4,2 trillion** so‘mga yetkaziladi. |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organlari*** *– Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi* | | | | | | |
| 9. | Qishloq xo‘jaligi uchun **265,2 milliard so‘m ajratib,** dehqon va fermer xo‘jaliklari, sohadagi klasterlarni qo‘llab-quvvatlash. | Qishloq va suv xo‘jaligi sohalarini qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagi manbalar hisobidan mablag‘lar ajratilishini ta’minlash;<br>a) Davlat budjetidan **132,6** milliard so‘m;<br>– qishloq xo‘jaligi uchun **32,7** milliard so‘m;<br>– suv xo‘jaligi uchun **99,9** milliard so‘m, investitsiya dasturi xarajatlari **94,5** milliard so‘m;<br>b) Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan – **1,896** milliard so‘m;<br>d) “Uzagrostar xolding” kompaniyasiga ajratilgan mablag‘lar – **20,0** milliard so‘m. | Davlat budjeti, mahalliy budjet, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar | 2026-yil 1-martdan boshlab | Tuman va shahar hokimliklari | **1. Qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash** uchun:<br>– shundan g‘alla yetishtirishni moliyalashtirish uchun **175,6 milliard** so‘m;<br>– paxta yetishtirishni moliyalashtirish uchun **845 milliard** so‘m;<br>– meva-sabzavot yetishtirish uchun **65,4 milliard** so‘m imtiyozli kredit ajratiladi;<br>– subsidiyalashga **810 milliard** so‘m yo‘naltiriladi.<br>**2.** Hosildorlik paxtachilikda **50-60 sentnerdan oshiriladi**, g‘allachilikda **90-100 sentnerga yetkaziladi**. |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organlari*** *– Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi* | | | | | | |
| 10. | Aholini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan **barqaror va uzluksiz ta’minlash,** narxlarning keskin tebranishlarini yumshatish maqsadida bozor mexanizmlari asosida zaxira | **1.** Oziq-ovqat xavfsizligi doirasida zaxira intervensiyasini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan tashkilotni **davlat-xususiy sherikligi** asosida tashkil etish choralarini ko‘rish. | Davlat budjeti, mahalliy budjet, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar | 2026-yil 1-iyundan boshlab | Tuman va shahar hokimliklari | **1.** Oziq-ovqat narxlarining mavsumiy tebranishi **1-4 foizgacha** muvofiqlashtiriladi.<br>**2.** Uy xo‘jaliklarining oziq-ovqat xarajatlari **1-3 foiz** oralig‘ida, kam ta’minlangan oilalarning xarajatlari esa |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | **intervensiya tizimini** joriy etish. | **2. Zaxira intervensiyasi** bo‘yicha **pilot loyihasini** amalga oshirish uchun hududni (tuman/shahar)ni tanlash, intervensiyalarni amalga oshirish shartlari, hajmlari va muddatlarini aniq belgilash.<br>**3. Ilg‘or xorijiy tajribalar** asosida zaxira intervensiyasi (kartoshka misolida) **namunaviy modelini ishlab chiqish** va pilot loyihasi doirasida sinovdan o‘tkazish. Bunda:<br>– bozordagi o‘rtacha narxlar dinamikasi, aholi ehtiyoji va mavjud zaxiralar hajmidan kelib chiqqan holda indikativ (yo‘naltiruvchi) xarid narxlarini belgilash, ularning majburiy yoki kafolatlangan minimal narx sifatida qo‘llanilmasligini ta’minlash ;<br>– bozorda mavjud mahsulot hajmi aholi ehtiyojidan sezilarli darajada ortiq bo‘lgan hollarda, bozor narxlariga yaqin shartlarda va cheklangan hajmlarda mahsulotlarni sotib olish, hamda zaxiralarni shakllantirish;<br>– bozorda vaqtinchalik tanqislik yoki narxlarning keskin o‘sishi kuzatilganda, | | | | **3-6 foizgacha** qisqarishiga erishiladi.<br>**3.** Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning daromadi **5-10 foizga** barqarorlashadi. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | zaxiraga olingan mahsulotlarni ichki bozorga bozor sharoitida chiqarish, bunda xususiy sektor faoliyatini siqib chiqarmaslik va eksport operatsiyalarini amalga oshirmaslik;<br>– zaxiraga olingan mahsulotlarning sifatini ta’minlash maqsadida omborxonalarni litsenziyalash va saqlash standartlarini joriy etish, ushbu talablarning barcha bozor ishtirokchilari uchun teng qo‘llanilishini ta’minlash.<br>**4.** Pilot loyiha natijalari asosida, intervensiya mexanizmlarining samaradorligi, bozorga ta’siri va fiskal yuki baholangan holda, 2030-yilga qadar oziq-ovqat xavfsizligi nuqtayi nazaridan ahamiyatli mahsulotlar bo‘yicha zaxira intervensiya mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etishga oid takliflar ishlab chiqish. | | | | |

Sirdaryo viloyati hokimining
2026-yil 5-martdagi
86-9-0-Q/26-son qaroriga
3-ilova

**Ekologik muvozanatni ta'minlash va suv resurslaridan oqilona foydalanishni samarali tashkil etish bo'yicha ustuvor islohotlar dasturini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar**
**REJASI**

| T/r | Islohot mazmuni | Islohotni amalga oshirish shakli va mexanizmlari | Moliyalashtirish manbalari | Ijroni boshlash muddati | Ijrochilar | Yil yakuni bo'yicha erishiladigan natija |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ***Ijro uchun mas'ul davlat organlari** – "Sirdaryo hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi* | | | | | | |
| 1. | Elektromobillarni **quvvatlash stansiyalari sonini ko'paytirish** uchun mazkur yo'nalishni **rag'batlantirish** bo'yicha islohotlarni amalga oshirish. | **1.** Elektromobillarni quvvatlash stansiyalarida **1 kilovatt soat** elektr energiyasi narxining **300 so'mdan oshgan qismini** Davlat budjetidan qoplab berish tartibini joriy etish.<br>**2.** Elektromobillarni **quvvatlash stansiyalarini** tashkil qilish uchun tadbirkorlarga **10 foizli maqsadli kreditlarni** ajratish.<br>**3. Quvvatlash stansiyalari** uchun sotib olinadigan yer maydonlarining **auksiondagi** boshlang'ich **narxini ularning bozor qiymatidan 2 baravar arzon narxda** belgilash. | Davlat budjeti va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar, xorijiy tashkilotlarning grant va homiylar mablag'lari, tijorat banklari mablag'lari *(kelishuv asosida)* | 2026-yil 1-may | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari | Elektromobillarni quvvatlash stansiyalari soni **4 mingtaga** yetkaziladi. |
| ***Ijro uchun mas'ul davlat organlari** – Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi hududiy boshqarmasi, Kasbiy ta'lim boshqarmasi* | | | | | | |
| 2. | Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida texnikumlar faoliyatini yo'lga qo'yish. | 2026/2027-o'quv yilidan boshlab **dual ta'lim** tizimi asosida **Boyovut tumani 2-son texnikumida "yashil" texnikumlarni** tashkil etish va | Davlat budjeti va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar | 2026-yil 1-sentabr | Tuman va shahar hokimliklari | Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida **professional ta'lim tizimi** yo'lga qo'yilib, sohaga yiliga |

SNK6902

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha kadrlar tayyorlash amaliyotini yo‘lga qo‘yish:<br>– **ekologiya** va **atrof-muhitni** muhofaza qilish. | | | | **30 nafar kadrlarni** yetkazib berish amaliyoti joriy etiladi. |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organlari** – Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (F.Kushakov va A.Xidirov)* | | | | | | |
| 3. | Atmosferaga zararli tashlanmalarni chiqarayotgan korxonalarning **ekologik toza uskunalardan foydalanishini rag‘batlantirish** tizimini isloh qilish. | Yirik korxonalarga filtr, tozalash inshooti va havoga chiqariladigan zararli moddalarni **monitoring qilish stansiyasini** o‘rnatish uchun **7-yilga** mo‘ljallangan kredit liniyalarini ochish. | Xorijiy tashkilotlarning grantlari va homiylar mablag‘lari, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar | 2026-yil 1-iyun | Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi viloyat boshqarmasi, tijorat banklari *(kelishuv asosida)*, tuman va shahar hokimliklari | **1.** Toshkent viloyati va Toshkent shahri atrofidagi **6 517 ta** issiqxonani tegishincha filtrlar bilan ta’minlash yoki boshqa hududlarga ko‘chirish, ularni **rag‘batlantirish bo‘yicha yangi tizim** joriy etiladi.<br>**2.** Toshkent viloyati va Toshkent shahrining **atmosfera havosini ifloslantirishdagi** ulushi **70 foizga** tushiriladi. |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organi** – Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi viloyat boshqarmasi hamda Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi* | | | | | | |
| 4. | Elektromobilda **taksi xizmati ko‘rsatuvchi fuqarolarga imtiyozlar**ni joriy etish. | **O‘zini o‘zi band qilgan fuqaro** sifatida ro‘yxatdan o‘tib, taksi xizmatini ko‘rsatuvchi fuqarolar uchun:<br>– belgilangan **ijtimoiy soliqni** to‘lashda **10 foizgacha chegirma** berish;<br>– davlat tashkilotlariga tegishli bo‘lgan, shu jumladan, **aeroport** | Davlat budjeti va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar | 2026-yil 1-mart | Transport boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari | **1.** Elektromobilda taksi xizmatini ko‘rsatuvchi **o‘zni o‘zi band qilgan fuqarolar** soni **300 ming nafarga** yetkazilishi uchun sharoitlar yaratiladi.<br>**2.** Yonilg‘i dvigatelli avtomobillarning |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **va vokzallarning** pulli avtoturargohlaridan **30 daqiqagacha bepul foydalanishga** ruxsat berish;<br>– huquqbuzarlik va yo‘l-transport hodisasi sodir etmasdan **1 million kilometr** masofada taksi xizmatini ko‘rsatgan fuqarolarga **“Tabiat himoyachisi”** ko‘krak nishonini berish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. | | | | atmosfera havosini ifloslantirishdagi ulushini **7 foizga kamaytirishga** erishiladi. |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organlari** – Tuman va shahar hokimliklari* | | | | | | |
| 5. | Qozog‘iston va Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh bo‘lgan Sirdaryo, Mirzaobod, Oqoltin va Xovos tumanlarida **chang-to‘zonlar** bo‘ladigan hududlarida **aholining salomatligini asrash** uchun **zarur tadbirlarni** amalga oshirish. | **1.** Amaliy tadbirlar doirasida:<br>chet davlatlari bilan chegaradosh hududlar jumladan Sirdaryo, Mirzaobod, Oqoltin va Xovos tumanlaridagi 84 km masofadagi yer maydonlarida yashil devorlarni barpo etish;<br>– **155,08 gektar** maydonlarda ihota daraxtzorlari barpo etish;<br>– har bir hududda botanika va dendrologiya bog‘lari va soya-salqin sayr ko‘chalarini barpo etish ishlari tashkillashtiriladi. | Davlat budjetidan mazkur masalalarga ajratilgan mablag‘lar doirasida va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar, Umummilliy ekologik muammolarni bartaraf etish davlat maqsadli jamg‘armasi | 2026-yil 1-martdan boshlab | Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy boshqarmasi | **1. Sirdaryoda 84 kilometrli “yashil devor”** barpo etiladi.<br>**2.** Tuproq eroziyasiga qarshi va cho‘llanishning oldini olish maqsadida **200 gektar** maydonda ihota daraxtzorlari va **80 gektar** maydonda o‘rmonzorlar barpo etiladi.<br>**3.** Viloyatda **botanika va dendrologiya bog‘lari va** soya-salqin sayr ko‘chalari barpo etiladi. |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organi** – Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi* | | | | | | |
| 6. | **36,4 ming gektar** maydonda **suv tejaydigan texnologiyalarni** joriy qilish tadbirlarini amalga oshirish. | **1.** Mazkur tadbirlarni moliyalashtirishga tijorat banklarining **310 milliard so‘m kredit mablag‘lari** hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida **700 milliard so‘m** | Tijorat banklari mablag‘lari *(kelishuv asosida)*, Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari, | 2026-yil 1-martdan boshlab | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tuman hokimliklari | Suv tejovchi texnologiya joriy qilinishi hisobidan **160 million metr kub suvni iqtisod qilishga** erishiladi. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **subsidiyalarni** yo‘naltirish.<br>**2.** Suv tejovchi texnologiyalarni **quyidagilar hisobidan** joriy etish:<br>– **8,4 ming** gektarda **tomchilatib**;<br>– **2,5 ming** gektarda **yomg‘irlatib**;<br>– **2 ming** gektarda **diskret**;<br>– **1,5 ming** gektarda **egiluvchan quvur** va **egatlarga plyonka to‘shab**;<br>– **22 ming** gektarda **lazerli tekislash**. | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | | | |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organi*** *– Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi* | | | | | | |
| 7. | **74,4 kilometr** yirik magistral kanallar, shu jumladan, **sug‘orish tarmoqlari** va **irrigatsiya obyektlari**ni betonlashtirish. | **74,4 km sug‘orish tarmoqlarini** *(shu jumladan, lotok, yopiq quvur, ichki sug‘orish tarmoqlari)* betonlashtirish. | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari | 2026-yil 1-martdan boshlab | Tuman va shahar hokimliklari | Yiliga qo‘shimcha ravishda **20 million metr kub suvni** iqtisod qilishga erishiladi. |
| ***Ijro uchun mas’ul davlat organi*** *– Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi* | | | | | | |
| 8. | Hududlarda **ochiq drenaj** va **kollektorlarni yopiq tizimga o‘tkazish** bo‘yicha alohida dasturni qabul qilib, amalga oshirish. | **878 kilometr** ochiq kollektorlarni yopiq tizimga o‘tkazish yuzasidan **3 yillik dasturni ishlab chiqib**, amalga oshirishni boshlash. | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari | 2026-yil 1-martdan boshlab | Tuman va shahar hokimliklari | Birinchi bosqichda **90 kilometr** drenaj va kollektorlar yopiq tizimga o‘tkaziladi. |

SNK6902

Sirdaryo viloyati hokimining
2026-yil 5-martdagi
86-9-0-Q/26-son qaroriga
4-ilova

## Davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish, jamiyatda birdamlikni ta'minlash orqali uni yuksaltirish bo'yicha ustuvor islohotlar dasturini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar
## REJASI

| T/r | Islohot mazmuni | Islohotni amalga oshirish shakli va mexanizmlari | Moliyalashtirish manbalari | Ijroni boshlash muddati | Ijrochilar | Yil yakuni bo'yicha erishiladigan natija |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ***Ijro uchun mas'ul davlat organlari*** *– Raqamli texnologiyalar vazirligi Sirdaryo viloyati hududiy shu'basi, Adliya boshqarmasi, Boshqaruv samaradorligi agentligining viloyat filiali* | | | | | | |
| 1. | Aholi murojaatlari va muammolarini hal etishning **yagona integratsiyalashgan tizimini yaratib**, har bir davlat organi va tashkilotining ularni hal etishdagi mas'uliyatini oshirish. | **1.** "Raqamli hukumat" tizimining **Yagona raqamli platformasi** konsepsiyasini ishlab chiqish.<br>**2.** Barcha davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari ushbu platformaga ulanishini ta'minlash va mahalladan tortib **respublika darajasida hal bo'ladigan** har bir masalaning **ijrochisi, muddati, resursini bir joyda** jamlash.<br>**3.** Kelib tushgan murojaatlar, ularni **ijrochilarga taqsimlash va ko'rib chiqish muddatini** nazorat **qilishni sun'iy intellekt orqali** amalga oshirishni yo'lga qo'yish. | Davlat budjetidan sohalarga ajratilgan mablag'lar doirasida, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar | 2026-yil 1-aprel | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Kasbiy ta'lim boshqarmasi, Soliq boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari | Barcha davlat organlari va tashkilotlarining:<br>– **1** mingdan ziyod davlat xizmatlari;<br>– **5 mingdan ortiq funksiya va vazifalari**;<br>– **200 ta ma'lumot bazasi** va axborot tizimi;<br>– **100** mingdan ziyod davlat xizmatchisining mahalla, tuman, viloyat, respublika darajasidagi vakolatlari **Yagona raqamli platformaga** integratsiya qilinadi. |
| ***Ijro uchun mas'ul davlat organlari*** *– Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi viloyat boshqarmasi hamda Xalq deputatlari viloyat Kengashi* | | | | | | |
| 2. | Deputatlar, saylovchilar va jamoatchilikning **"Mening bog'im"** | **1. "Ochiq budjet"** axborot portalida tanlovda ishtirok etgan, lekin yetarlicha ovoz to'play | Ijrochilar mablag'lari | 2026-yil 1-mart | Tuman va shahar hokimliklari | Har bir deputatga bir mavsumda **bitta loyihani "g'olib"** deb e'lon qilish |

SNK6902

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | loyihalarini shakllantirish jarayonlarida **o‘zaro hamkorligini** ta’minlash. | olmagan **“Mening bog‘im”** loyihalarini hududning ekologik holati va sharoitlariga muvofiqligidan kelib chiqqan holda deputatlar tomonidan **g‘olib deb e’lon qilish amaliyotini** yo‘lga qo‘yish.<br>**2.** Deputatlar tomonidan qo‘shimcha g‘olib deb topilgan “Mening bog‘im” loyihalarini **muvofiqlashtirish** ishlarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasida tuzilgan **Tashabbusli budjet jarayonlarida parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha komissiyasi** tomonidan tashkil etish. | | | | imkoniyati yaratiladi va buning uchun **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi doirasida **ajratiladigan mablag‘lar hisobidan har bir loyiha uchun 250 mln so‘m** mablag‘ ajratiladi. |

Sirdaryo viloyati hokimining
2026-yil 5-martdagi
86-9-0-Q/26-son qaroriga
5-ilova

**“O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi bo‘yicha**
**AMALIY TADBIRLAR REJASI**

| T/r | Vazifalar | Amaliy chora-tadbirlar | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Hamijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLAR YARATISH** | | | | | |
| **1-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N.Xolboyeva)* | | | | | |
| 1. | Maktabgacha ta’lim bilan qamrovni aholining demografik o‘sish ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda amaldagi 84,9 foiz darajasida saqlab qolish. | **1.** 70 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish.<br>**2.** 2026-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish va rekonstruksiya qilish orqali qo‘shimcha yangi quvvatlar yaratish. | 2026-yil dekabr | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (D.Ruzmatov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Kurbanov), tuman va shahar hokimliklari |
| **3-maqsad: Umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N.Xolboyeva)* | | | | | |
| 2. | Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning baholash tizimi joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ulushini oshirish. | **1.** 2025/2026-o‘quv yili yakunida 310 ta umumta’lim maktabida joriy etilgan o‘quvchilar bilimni baholashning yangi tartibi samaradorligini tahlil qilish.<br>**2.** Tahlillar natijasiga ko‘ra, 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab yangi baholash tizimi joriy etiladigan maktablar sonini 312 taga yetkazish. | 2026-yil iyul<br><br>2026-yil sentabr | Ijrochilar mablag‘lari | Tuman va shahar hokimliklari |
| 3. | Umumiy o‘rta ta’lim | **1.** Vazirlikning ijtimoiy | 2026-yil | Davlat budjetidan | Tuman va shahar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | muassasalariga jalb etilgan xorijiy mutaxassislar sonini 20 nafarga yetkazish. | tarmoqlardagi rasmiy sahifalari va veb-saytlar orqali mavjud ish o‘rinlari to‘g‘risida e’lonlar berish.<br>**2.** Kelib tushgan arizalarni ko‘rib chiqish va saralash.<br>**3.** Saralashdan o‘tgan nomzodlar bilan suhbatlar tashkil etish.<br>**4.** Suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlarni umumta’lim maktablariga jalb etish choralarini ko‘rish.<br>**5.** Xorijiy mutaxassislarni jalb etishda ularning **amaliy tajribasi, pedagogik mahorati va mahalliy muhitga moslashish qobiliyatiga** alohida e’tibor qaratish.<br>**6.** Jalb etilgan mutaxassislar bilimini samarali o‘zlashtirish uchun **mahalliy o‘qituvchilar bilan qo‘shma darslar va tajriba almashish tizimini** yo‘lga qo‘yish. | sentabr | ajratilgan mablag‘lar doirasida | hokimliklari |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Tuman va shahar hokimliklari* | | | | | |
| 4. | Umumta’lim maktablariga jalb etilgan xorijlik mutaxassislar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. | **1.** Hududlar kesimida xorijlik mutaxassislarga bo‘lgan talabni shakllantirish va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga taqdim qilish.<br>**2.** Xorijdan kelgan mutaxassislarni turarjoylarga joylashtirish va zarur sharoitlar bilan ta’minlash.<br>**3.** Turar joy uchun ijara to‘lovlarini har oy kechiktirmasdan amalga oshirib borish. | 2026-yil may<br><br>2026-yil sentabr<br><br>2026/2027-o‘quv yilidan boshlab har oy | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N.Xolboyeva) |
| **4-maqsad: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N.Xolboyeva)* | | | | | |

SNK6902

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachi va o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish. | **1.** Reja-jadval ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>**2.** Tasdiqlangan reja-jadval asosida 10 nafar pedagog xodimlarni malaka oshirish va stajirovkaga yuborish. | 2026-yil mart-dekabr | Ijrochilar mablag'lari | Tuman va shahar hokimliklari |
| **6-maqsad: Kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Kasbiy ta'lim boshqarmasi (Sh.Namozova)* | | | | | |
| 6. | Kasbiy ta'lim tizimida ta'lim dasturlari davomiyligidan kelib chiqib, ta'lim muassasasida o'quvchilar nazariy bilimlarni egallash bilan birga amaliyot bilan shug'ullanib (zavod, fabrika, ishlab chiqarish korxonalarida) kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv-uslubiy mexanizmlarni yo'lga qo'yish. | **1.** Kasbiy ta'lim tizimida ta'lim dasturlarini kasbiy standartlar va ish beruvchilarning takliflari asosida amaliyotga yo'naltirilgan holda ishlab chiqish va o'quv jarayoniga joriy etish<br>**2.** Kasbiy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish subyektlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish. | 2026-yil sentabr | – | Tuman va shahar hokimlari |
| 7. | Kasbiy ta'lim muassasalarida malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini oshirish. | **1.** Majburiy va ixtiyoriy ravishda attestatsiyaga jalb etiladigan pedagoglarning Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "pedagog.edu.uz" platformasi orqali ro'yxatdan o'tishlarini ta'minlash.<br>**2.** Pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga tegishli malaka toifalarini berish. | 2026-yil dekabr | – | Tuman va shahar hokimlari |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Tuman va shahar hokimliklari* | | | | | |
| 8. | Hududlarda tadbirkorlikka qiziquvchi maktab bitiruvchilarini qo'llab-quvvatlash. | Hududlarda tadbirkorlikka qiziquvchi maktab bitiruvchilarini tegishli tadbirkorlarga biriktirib, ularning ko'nikmalarini oshirish choralarini ko'rish. | 2026-yil may | – | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (N.Xolboyeva), Savdo-sanoat palatasi viloyat bo'lim (A.Mansurov) |
| **13-maqsad: Aholining o'rtacha umr davomiyligini oshirish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul** — Sog'liqni saqlash boshqarmasi (Y.Mamanazarov)* | | | | | |
| 9. | Aholi o'rtasida eng ko'p uchraydigan kasalliklarni barvaqt aniqlash va ular bilan kasallanishni keskin kamaytirish. | **1.** Profilaktik ko'riklar jadvalini tasdiqlash.<br>**2.** 18–40 yoshli 27,4 ming nafar aholini profilaktik ko'rikdan o'tkazish.<br>**3.** 34,1 ming nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida eng ko'p uchraydigan yurak-qon tomir, qandli diabet, sil kasalliklari xavfini aniqlash maqsadida profilaktik ko'riklarni o'tkazish.<br>Bunda infarkt va insultga qarshi kurashish milliy dasturi joriy qilingan hududlarda yurak qon-tomir va serebrovaskulyar kasalliklarni erta bosqichda aniqlash 30 yoshdan oshgan aholi o'rtasida o'tkazilishi inobatga olinadi. | 2026-yil mart tarmoq rejasi asosida | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar | Tuman va shahar hokimliklari |
| **17-maqsad: Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va o'lim ko'rsatkichini kamaytirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul** — Sog'liqni saqlash boshqarmasi (Y.Mamanazarov)* | | | | | |
| 10. | Xavf guruhiga mansub bo'lgan aholini onkologik kasalliklar bo'yicha skrining tekshiruvlaridan o'tkazish. | **1.** Yiliga 14,4 ming ayollarda bachadon bo'yni saratoni va 39,1 ming ayollarni ko'krak bezi saratonini erta aniqlash bo'yicha maqsadli skriningdan o'tkazish.<br>**2.** Kasalliklar aniqlangan bemorlarni o'z vaqtida davolash choralarini amalga oshirish. | 2026-yil mart oyidan boshlab | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Kurbanov), tuman va shahar hokimliklari |
| **19-maqsad: Sog'lom va faol keksalikni ta'minlash** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul** — Sog'liqni saqlash boshqarmasi (Y.Mamanazarov)* | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 11. | Har yili 60 va undan katta yoshdagi aholini sog‘lomlashtirish. | 60 va undan katta yoshdagi aholi ro‘yxatini shakllantirib reja-jadval asosida **45 ming nafarini** tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va sog‘lomlashtirish choralarini ko‘rish. | 2026-yil dekabrga qadar | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida hisob-kitoblarga ko‘ra | Tuman va shahar hokimliklari |
| **20-maqsad: Aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (Y.Mamanazarov)* | | | | | |
| 12. | Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish. | To‘g‘ri ovqatlanish tamoyillari va ularga amal qilish bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqish hamda keng targ‘ibot ishlarini tashkil etish | 2026–2030-yillar | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida Ijrochilar o‘z mablag‘lari hisobiga | Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N.Xolboyeva) Kasbiy ta’lim boshqarmasi (Sh.Namozova), tuman va shahar hokimliklari |
| **22-maqsad: Professional ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Ijtimoiy himoya milliy viloyat boshqarmasi (Q.Xamdamov)* | | | | | |
| 13. | Aholining ehtiyojmand qatlamlariga hududlarda kompleks ijtimoiy va reabilitatsiya xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish. | Sirdaryo viloyati, Guliston shahrida 1 ta hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yish. Bunda:<br>hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlari loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va binolarda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishni boshlash;<br>binolarni zarur moddiy-texnik jihozlar bilan ta’minlash;<br>hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlarida tadbirkorlik subyektlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish orqali kompleks ijtimoiy va reabilitatsiya xizmatlari ko‘rsatilishini yo‘lga qo‘yish. | 2026-dekabr | Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Tuman va shahar hokimliklari, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Kurbanov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat boshqarmasi (A.Babadjanov), tegishli boshqarma va tashkilotlar |
| **23-maqsad: Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **va maqbul muhitni yaratish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul** — Ijtimoiy himoya milliy viloyat boshqarmasi (Q.Xamdamov)* | | | | | |
| 14. | Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay muhit va to'siqsiz harakatlanish imkoniyatini yaratish. | **1.** Davlat dasturlari doirasida rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlashga tushgan ko'p kvartirali uylarni ularning asosiy kirish yo'laklaridan liftgacha bo'lgan qismida nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz harakatlanishi uchun belgilangan talablar asosida pandus bilan ta'minlash. | 2026-yil 1-martdan boshlab doimiy ravishda | Davlat dasturlari uchun ajratiladigan mablag'lar | Tuman va shahar hokimliklari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (D.Ruzmatov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Kurbanov), |
| | | **2.** 60 ta umumfoydalanishdagi hojatxonalarni nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz foydalanishlari uchun jihozlash. | 2026-yil yakuniga qadar | Mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (D.Ruzmatov) |
| **25-maqsad: Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul** — Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (N.Tojibayeva)* | | | | | |
| 15. | Xotin-qizlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunar turlariga o'qitish orqali bandligini ta'minlashga ko'maklashish hamda ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida:<br>3 205 nafar xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish;<br>7 573 nafar xotin-qizlarga ishga joylashishiga ko'maklashish;<br>2 404 nafar xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish choralarini ko'rish. | **1.** Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish grafigini ishlab chiqish.<br>**2.** Ishsiz va daromad topish istagidagi xotin-qizlarni qisqa muddatli o'quv kurslarga jalb qilish<br>**3.** Ishlash istagidagi xotin-qizlar uchun bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkalarini tashkil etish. | 2026-yil mart<br><br>Tasdiqlangan grafik asosida<br><br>Har chorakda | Ijrochilar mablag'lari | Kasbiy ta'lim boshqarmasi (Sh.Namozova), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (A.Tadjiyev), Bojxona boshqarmasi (N.Salimjonov), tuman va shahar hokimliklari |
| 16. | **26** ta mahallada xususiy sektorlarni jalb qilgan holda **xotin-qizlar bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash** | **1.** Mahallalarda bo'sh turgan yer maydonlari yoki bo'sh binolarni aniqlash.<br>**2.** Markazlarni tashkil etish | 2026-yil davomida | Tashabbuskorlar mablag'lari, qonunchilikda ko'zda tutilgan | Tuman va shahar hokimliklari, Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi |

SNK6902

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **markazlari**ni davlat-xususiy sheriklik asosida yoki kasb-hunar o‘rgatish faoliyati bilan belgilangan tartibda shug‘ullanuvchi tashabbuskor tadbirkorlar binolarida tashkil etish. | choralarini ko‘rish. | | boshqa mablag‘lar | (Sh.Ruziqulov), Davlat aktivlarini boshqarish boshqarmasi (A.Babadjanov) |
| 17. | Har bir hududda xotin-qizlarni kasanachilik asosida band qilgan lider tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish va ularning xorijiy davlatlarda tajriba almashishini tashkil etish. | **1.** Hududlarda ming nafardan xotin-qizlarni kasanachilik asosida band qilgan tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish.<br>**2.** Dasturga muvofiq ularni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish. | 2026-yil may<br><br>2026-yil yakuniga qadar | Ijrochilar mablag‘lari | Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (A.Mansurov), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, (M.Saliyev), tuman va shahar hokimliklari |
| 18. | Milliy merosni asrash, kashtachilik san’atini targ‘ib qilish, ishsiz **ayollarni daromad topishga o‘rgatish**, ko‘rgazmalarda ishtirok etishiga ko‘maklashish maqsadida kashtachi va dizaynerlar o‘rtasida “Ipak kashta jilosi” viloyat tanlovini o‘tkazish. | **1.** “Ipak kashta jilosi” viloyat tanlovini tashkil qilish bo‘yicha ishchi guruhni shakllantirish.<br>**2.** “An’anaviy kashtachilik va ipak matolari san’atini rivojlantirish istiqbollari“ mavzusida forum hamda kashtachilik va ipak matolari san’atiga oid ko‘rgazma tashkil qilish.<br>**3.** Festival doirasida faol bo‘lgan kashtachi xotin-qizlarni taqdirlash. | 2026-yil aprel<br><br>2026-yil sentabr | Ijrochilar mablag‘lari | “Hunarmand” uyushmasi, tuman va shahar hokimliklari |
| **26-maqsad: Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — “Nuroniy” jamg‘armasi viloyat bo‘limi (O‘. Abdiyev)* | | | | | |
| 19. | Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash. | **1. “Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmasin”** shiori ostida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan keksalar va nuroniylar hamda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va urush orti mehnat faxriylari holidan muntazam xabar olish.<br>**2.** Respublika va viloyatimizdagi **diqqatga sazovor joylarga, tarixiy shaharlar, qadimiy obidalar,** | 2026-yil davomida | “Nuroniy” jamg‘armasi va homiylar mablag‘lari | Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi (Q.Xamdamov), Turizm boshqarmasi (S.Yuldashev), Transport boshqarmasi (R.Ubaydullayev), Yoshlar ishlari agentligi (B. Akramov), |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **ziyoratgohlar va yurtimizning so‘lim go‘shalariga** 38,0 ming nafar nuroniylarning sayohatlarini tashkil etish.<br>O‘lchov birligi – ming nafar<br>2026-yil – 38<br>I chorak – 5,7;<br>II chorak – 11,4;<br>III chorak – 11,4;<br>IV chorak – 9,5.<br>**3.** Mahallalarda, o‘quv yurtlarida, tashkilot va idoralarda yoshlar, shuningdek, uyushmagan, tarbiyasi og‘ir, muammoli yoshlar va kam ta’minlangan oilalardagi yoshlar o‘rtasida, shuningdek, harbiy qismlarda harbiy xizmatchilar o‘rtasida keksa avlod vakillari ishtirokida **“Uch avlod uchrashuvi”** tadbirlarini o‘tkazish. | | | Kasbiy ta’lim boshqarmasi (Sh.Namozova),<br>Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N.Xolboyeva),<br>Mudofaa boshqarmasi (Sh.Djabbarov),<br>tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma va tashkilotlar |
| **27-maqsad: Mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *— Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (A.Tadjiyev)* | | | | | |
| 20. | 2026-yilda jami 29,6 ming nafar kambag‘al aholini kambag‘allikdan chiqarish xizmatlari bilan qamrab olish. | **1.** Kambag‘allikdan chiqariladigan aholi soninig hududlar kesimida parametrlarini tasdiqlash.<br>**2.** 7,3 mingta kambag‘al oilalarga xizmat ko‘rsatish choralarini ko‘rish.<br>**3.** Ijtimoiy reyestrdan chiqqan, lekin kambag‘allikka qayta kirish xavfi mavjud bo‘lgan 5,4 ming nafar aholi bilan manzilli ishlash. | 2026-yil mart<br><br>har oyda | Tegishli jamg‘arma mablag‘lari, bank krediti | Tijorat banklari (kelishuv asosida),<br>Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Kurbanov),<br>Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi (Q.Xamdamov),<br>tuman va shahar hokimliklari |

SNK6902

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 21. | 2026-yilda mahallalarda jami 2,2 mingta mikroloyihani amalga oshirish. | **1.** Mahallalarda amalga oshiriladigan mikroloyihalarning mahallalar va oylar kesimida parametrlarini tasdiqlash.<br>**2.** Hokim yordamchilari koʻmagida tashabbuskorlarni aniqlash va mikro loyihalarni ishga tushirish orqali 2026-yilda 11,8 ming nafar aholi bandligini ta'minlash. | 2026-yil mart<br><br>har oyda | Tashabbuskorlar mablagʻlari | Tuman va shahar hokimliklari |
| **28-maqsad: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sugʻurta tizimini takomillashtirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** — *Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (A.Tadjiyev)* | | | | | |
| 22. | 2026-yilda bandlik dasturlari doirasida aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash hamda tadbirkorlikka jalb etish orqali ishsizlik darajasini 4,6 foizga tushirish. | **1.** 2026-yilda dasturlar doirasida yaratilgan yangi ish oʻrinlari orqali aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash. Bunda:<br>qishloq xoʻjaligi sohasi, xizmat koʻrsatish, qurilish sohasi hamda investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash.<br>**2.** Norasmiy sektorda band boʻlganlarni rasmiylashtirish. | 2026-yil davomida | Tadbirkor mablagʻi, bank krediti, tegishli jamgʻarma mablagʻlari | Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi (J.Umarov),<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (M.Saliyev),<br>Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi (D.Ruzmatov),<br>mas'ul boshqarma va tashkilotlar,<br>tuman va shahar hokimliklari |
| 23. | 2026-yilda jami 24,3 ming aholini doimiy ishga joylashtirishga koʻmaklashish. | **1.** Dasturlar doirasida yangi loyihalarni ishga tushirish hisobiga yaratilgan yangi ish oʻrinlariga ishga joylashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash.<br>Bunda:<br>xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish orqali 4,8 ming nafar;<br>"Bandlik organlari – ish beruvchilar hamkori" dasturi (boʻsh ish oʻrinlariga ishga joylashtirish) orqali 3,6 ming nafar;<br>tadbirkorlikni rivojlantirish orqali doimiy ishga joylashtirish ("Uychi" | 2026-yil davomida | Tadbirkor mablagʻi, bank krediti, tegishli jamgʻarma mablagʻlari | Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi (J.Umarov),<br>Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (M.Saliyev),<br>Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi (D.Ruzmatov),<br>mas'ul boshqarma va tashkilotlar,<br>tuman va shahar hokimliklari |

SNK6902

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tajribasi) asosida 9 ming nafar;<br>“Qishloq xo‘jaligi”ni rivojlantirish orqali 2,8 ming nafar;<br>“Investitsiya loyihalari”ni ishga tushirish hisobiga 3,3 ming nafar;<br>Qurilish sohasida 755 nafar doimiy ish o‘rinlariga ishga joylashtirish.<br>**2.** Korxona va tashkilotlardagi mavjud bo‘sh va zaxira ish o‘rinlariga ishga joylashtirish orqali bandligini ta’minlash choralarini ko‘rish. | | | |
| **29-maqsad: Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Kasbiy ta’lim boshqarmasi (Sh.Namozova)* | | | | | |
| 24. | 2026-yilda 6 nafar o‘qituvchi va muhandis ustalarning xalqaro standartlar asosida malakasini oshirish. | **1.** Malaka oshiradigan o‘qituvchilar ro‘yxatini shakllantirish.<br>**2.** 6 nafar texnikum o‘qituvchilarining xalqaro standartlar asosida xorijiy ekspertlar ishtirokida tashkil etilgan treninglarda malakasini oshirish. | 2026-yil davomida | Xalqaro moliya jamg‘armalari, ijrochilar mablag‘lari | Tuman va shahar hokimliklari |
| **32-maqsad: Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Yoshlar ishlari boshqarmasi (B.Akromov)* | | | | | |
| 25. | Har bir vazirlik va idoralarning rahbarlari, tuman (shahar) hokimlari tomonidan mahallalarda istiqomat qilayotgan va xorijdagi yoshlar bilan muloqot qilib, ularning muammo va takliflarini o‘rganish hamda hal etish choralarini ko‘rish. | **1.** “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlarini o‘tkazish rejasini tasdiqlash va ularni yuqori saviyada tashkil etish.<br>**2.** Uchrashuvlarda bildirilgan muammo va takliflarni hal etish choralarini ko‘rish. | 2026-yil davomida | Ijrochilarning mablag‘lari | Viloyat tashkilotlar rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari |
| **33-maqsad: Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Raqamli texnologiyalar vazirligi Sirdaryo viloyati hududiy shu’basi (A.Babayev)* | | | | | |
| 26. | “Bir million dasturchi” loyihasining mantiqiy davomi sifatida “Besh million sun’iy | **1.** “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasini yoshlar orasida ta’lim tashkilotlari va ommaviy axborot | 2026-yil dekabr | Ijrochilar mablag‘lari, qonunchilik bilan | Kasbiy ta’lim boshqarmasi (Sh.Namozova), Maktabgacha va maktab |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | intellekt yetakchilari" loyihasi doirasida yoshlarni o'qitish. | vositalari bilan hamkorlikda keng targ'ib qilish choralarini ko'rish.<br>**2.** Loyiha doirasida o'qiganlar sonini 13 ming nafarga yetkazish.<br>**3.** Loyiha doirasida eng yaxshi natija ko'rsatgan yoshlar va ishtirokchilarni rag'batlantirib borish. | | taqiqlanmagan boshqa manbalar | ta'limi boshqarmasi (N. Xolboyeva), tuman va shahar hokimliklari |
| **34-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Sport boshqarmasi (A.Buranov)* | | | | | |
| 27. | Sog'lom turmush tarzini rivojlantirish maqsadida ommaviy sport musobaqalarida aholi qamrovini kengaytirish. | **1.** Sport bilan shug'ullanishga jalb qilingan aholi ulushini 45 foizga yetkazish. Bunda:<br>mahallalarda istiqomat qilayotgan aholining keng qatlami, ayniqsa, yoshlarni ommaviy sportga keng jalb etishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish va tadbirlar nizomini ishlab chiqish;<br>"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish;<br>"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida mahalla yoshlari, oliy ta'lim muassasalari talabalari, kasbiy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari, idora va tashkilotlar xodimlari hamda 30 yoshdan yuqori bo'lgan aholi o'rtasida ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish.<br>**2.** Aholining 11 ta yosh toifalari bo'yicha barcha hududlarda har yili jismoniy tayyorgarlik sinovlarini | 2026-yil aprel – dekabr | "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi sport musobaqalarini tashkil etishga ajratilgan mablag'lar, sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag'lar, mahalliy budjet va ijrochilar mablag'lari | Yoshlar ishlari boshqarmasi (B.Akromov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (U.Xatamov) Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (N.Xolboyeva) Oliy ta'lim muassasalari, tuman va shahar hokimliklari |

SNK6902

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | o'tkazish. | | | |
| **35-maqsad: Respublikada sport bilan professional va doimiy shug'ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Sport boshqarmasi (A.Buranov)* | | | | | |
| 28. | Sport-ta'lim muassasalarida muntazam shug'ullanuvchi yoshlar sonini **25,5 ming nafardan** oshirish. | **1.** Sport turlari bo'yicha yangi guruhlar faoliyatini tashkil etish.<br>**2.** Sport trenerlari va mutaxassislari malakasini oshirib borish.<br>**3.** Ommaviy sport tadbirlaridan seleksiya ishlarini amalga oshirish orqali sport-ta'lim muassasalarida muntazam shug'ullanuvchilar qamrovini oshirish. | 2026-yil dekabr | Mahalliy budjet mablag'lari hamda homiylar mablag'lari | Tuman va shahar hokimliklari |
| 29. | Umumta'lim maktablarida sport bilan muntazam shug'ullanuvchi o'quvchilar sonini **15,5 ming** nafarga yetkazish. | **1.** Umumta'lim maktablarida sport turlari bo'yicha sport klublari va to'garaklari tarmog'ini kengaytirish.<br>**2.** Ommaviy sport tadbirlari va jismoniy tarbiya darslarida aniqlangan iqtidorli o'quvchilarni maktab sport klublariga seleksiya qilish orqali shug'ullanuvchilar qamrovini oshirish. | 2026-yil dekabr | Mahalliy budjetlari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan | Tuman va shahar hokimliklari, Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (N.Xolboyeva) |
| **38-maqsad: Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul*** *— Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (M.Xaitov)* | | | | | |
| 30. | Madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat sohalarini rivojlantirish bo'yicha Respublika jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish. | **1.** Viloyat jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish.<br>**2.** Viloyat va tuman (shahar)larda jamoatchilik kengashlari faoliyatini yo'lga qo'yish. | 2026-yil iyun<br>2026-yil sentabr | Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida | Madaniyat boshqarmasi (X.Mamatov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (U.Xatamov), tuman va shahar hokimliklari |
| 31. | Hududlardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda aholining kayfiyati va islohotlarga daxldorligi darajasini o'rganish maqsadida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish. | **1.** Ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda aholi kayfiyatini o'rganishga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish metodikasi, so'rovnoma namunasi hamda "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish.<br>**2.** Belgilangan reja asosida | 2026-yil mart<br><br>2026-yil | Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida | Kasbiy ta'lim boshqarmasi (Sh.Namozova), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (U.Xatamov), |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | so‘rovnomalarni o‘tkazish.<br>**3.** Har bir hudud bo‘yicha sotsiologik tahlilni amalga oshirish va yakuniy natijalari asosida xulosalar kiritish. | oktabr<br>2026-yil dekabr | | tuman va shahar hokimliklari |
| **40-maqsad: Zamonaviy teatr va sirk san’atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Madaniyat boshqarmasi (X.Mamatov)* | | | | | |
| 32. | Sirdaryo viloyat musiqali drama teatrining Respublika va xalqaro teatr festivallarida ishtirokini ta’minlash. | Respublikamizdagi teatrlarning o‘zaro tajriba almashishini kuchaytirish, uzviy ijodiy hamkorligini yo‘lga qo‘yish kabi maqsadlar uchun 2026-yildan boshlab respublika teatrlari festivalini o‘tkazish bo‘yicha taklif kiritish. | 2026-yil oktabr | Ijrochilar mablag‘lari | Tuman va shahar hokimliklari |
| **41-maqsad: O‘zbek milliy san’atini targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** — Madaniyat boshqarmasi (X.Mamatov)* | | | | | |
| 33. | **“Yoshlik bahori”** va **“Oltin kuz”** iqtidorli ijodkor yoshlar forumlarini tashkil etish orqali yoshlarni madaniyat va san’atga keng jalb etish, kasbiy ko‘nikmalarini oshirish. | **1.** “Yoshlik bahori” va “Oltin kuz” iqtidorli ijodkor yoshlar forumida ishtirok etish uchun viloyatdagi ijodkor yoshlar ro‘yxatini shakllantirish.<br>**2.** Forumda viloyat ijodkor yoshlari ishtirokini ta’minlash. | 2026-yil reja asosida | Ijrochilar mablag‘lari | Tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari |
| **II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH** | | | | | |
| **45-maqsad: 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul** – Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Kushakov), Markaziy bank (N.Sulaymanov)* | | | | | |
| 34. | Tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif muvozanatini ta’minlash orqali 2026-yilda yillik inflyatsiya darajasining **6-6,5 foizdan** oshmasligini ta’minlash. | 2026-yilda inflyatsiya darajasi 6-6,5 foiz atrofida bo‘lishini ta’minlash maqsadida pul-kredit sharoitlarini 2026-yilda ham nisbatan qat’iy fazada saqlab qolish, pul bozorida ijobiy 5-6 foizlik real stavkalar shakllanishini ta’minlash.<br>Bunda:<br><br>zarur hollarda likvidlikni jalb qilish instrumentlari hajmlarini oshirish;<br>inflyatsiya kutilmalaring | 2026-yil davomida | – | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Kurbanov), tuman va shahar hokimligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | pasaytirishga qaratilgan kommunikatsiya siyosatini olib borish;<br>asosiy turdagi tovar va xizmatlar narxlarini hududlar bo'yicha kuzatib borish, inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi nomonetar omillar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni Hukumatga kiritib borish. | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul** – Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Kurbanov)* | | | | | |
| 35. | Fazoviy-hududiy strategiyalar va rejalarni ishlab chiqishga xorijiy kompaniyalarni jalb qilish | 1. Jahon bankining "O'rta shaharlarni kompleks rivojlantirish loyihasi" doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha fazoviy-hududiy rejalashtirish strategiyalar hamda Yangi O'zbekiston qiyofasi maqomidagi tuman (shahar) bo'yicha **fazoviy-hududiy rejalarni ishlab chiqish** yuzasidan tender jarayonlarini yakunlash.<br>2. Ushbu strategiya va rejalarni ishlab chiqishga xorijiy kompaniyalarni jalb qilish choralarini ko'rish.<br>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish. | 2026-yil iyul<br><br>2026-yil sentabr<br><br>2026-yil dekabr | Xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (D.Ruzmatov), tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma va tashkilotlar |
| **48-maqsad: Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas'ul** – Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (F.Kushakov)* | | | | | |
| 36. | **To'qimachilik**da ip kalavani qayta ishlash darajasini **100 foiz**ga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun sun'iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. | **1. Sun'iy tola ishlab chiqarish** bo'yicha yangi loyihalarni shakllantirish.<br>**2.** Sohaga oid dunyodagi **mashhur brendlar bilan hamkorlikda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish**ni yo'lga qo'yish bo'yicha | 2026-yil iyun<br><br>2026-yil dekabr | – | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Kurbanov), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (M.Saliyev), tuman va shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | chora-tadbirlarni belgilash.<br>**3.** 2026-yilda **ip kalavani qayta ishlash** bo‘yicha qo‘shimcha loyihalarni amalga oshirish. | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *– Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (M.Saliyev)* | | | | | |
| 37. | Hududlar salohiyatidan kelib chiqib, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish uchun yangi investitsiya loyiha takliflarini ishlab chiqish. | **1.** Har bir hududdagi loyiha ofislari tomonidan hududning iqtisodiy ixtisosligi, tabiiy resurslari, infratuzilmaviy imkoniyatlari va kadrlar salohiyatidan kelib chiqib, istiqbolli investitsiya loyihalarini shakllantirish.<br>**2.** Loyihalar uchun biznes-rejalar, texnik-iqtisodiy asosnomalar va hujjatlar tayyorlash, ularni investorlar uchun tayyor paket holatiga keltirish.<br>**3.** Yangi loyiha takliflarini mahalliy va xorijiy investorlarga taqdim etish, shu jumladan, xalqaro investitsiya forumlari va platformalarida faol targ‘ib qilish.<br>**4.** Hududlardagi loyiha ofislari va mahalliy hokimliklar tomonidan aniq investorlar bilan amaliy muzokaralar o‘tkazish, loyihalarni ishga tushirishga qaratilgan manzilli ishlarni boshlash. | 2026-yil davomida | – | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Kurbanov), tuman va shahar hokimliklari, Savdo-sanoat palatasi (A.Mansurov), tegishli boshqarma va idoralar |
| **51-maqsad: “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *– Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (D.Ruzmatov)* | | | | | |
| 38. | Viloyatdagi 20 ta ko‘p qavatli turar joylarning ichki issiqlik tizimini yaxshilash. | **1.** Issiqlik tizimini energiya tejamkor texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.<br>**2.** Quyosh panellari va geotermal quvvatdan foydalanish pilot loyihalarini amalga oshirishni boshlash.<br>**3.** Joriy etilgan tizimlarda energiya tejash samaradorligini baholash. | 2026-yil mart<br>2026-yil iyul<br>2026-yil dekabr | Xususiy investitsiyalar | “Yagona buyurtmachi” IK (A.Bo‘ronov), “Sirdaryoissiqlik ta’minoti” MChJ (A.Ro‘ziyev), tuman va shahar hokimliklari |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** *– “Sirdaryo hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ (Y.Dexkanov)* | | | | | |

SNK6902

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 39. | Viloyat hududlarida umumiy quvvati **0,69 MVt** bo‘lgan **32 dona** kichik va mikro gidroelektrstansiyalarini o‘rnatish va barpo etish. | **1.** Loyihalarni, loyiha hujjatlari yig‘ma jildini tayyorlagan holda auksion savdolariga chiqarish.<br>**2.** Auksion savdolari asosida loyiha g‘oliblarini (tashabbuskorlar)ni aniqlash.<br>**3.** Loyihalar tashabbuskorlari bilan loyihalar uchastkalarining rasmiylashtiruvini amalga oshirish.<br>**4.** Belgilangan loyihalar uchun ularning tashabbuskorlari tomonidan loyihalash, qurilish va ishga tushirish ishlari olib borilishini nazorat qilish. | 2026-yil mart<br>2026-yil may<br>2026-yil iyul<br>2026-yil dekabr | Tashabbuskorlar mablag‘lari, Jahon banki kredit mablag‘lari | Tuman va shahar hokimliklari |
| 40. | Viloyatning **33 ta** og‘ir toifadagi mahallalarida umumiy quvvati **9,9 MVt** bo‘lgan kichik quyosh fotoelektr stansiyalarini barpo etish. | **1.** Kichik quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish uchun yashil grantlar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish.<br>**2.** Kichik quyosh fotoelektr stansiyalarini foydalanishga topshirish va tarmoqqa ulash. | 2026-yil dekabr | Xalqaro va moliya tashkilotlarining grant va tashabbuskor mablag‘lari | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (A.Tadjiyev), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (M.Saliyev), tuman va shahar hokimliklari |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** – *Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (D.Ruzmatov)* | | | | | |
| 41. | Ko‘p kvartirali uy-joylarning energiya samaradorligini oshirish va energiya yo‘qotishlarini kamaytirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish. | Quyidagilarni:<br>133 ta ko‘p kvartirali uy-joylarning (fasad va tom qismlarini) issiqlik saqlovchi materiallar bilan qoplash, kirish yo‘laklarida energiya tejamkor eshik va oyna romlarini o‘rnatish, ularni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, *(quyosh, shamol, biomassa)* foydalanish orqali barqaror isitish va sovitish tizimlari bilan ta’minlash bo‘yicha pilot loyihalarni;<br>energiya samaradorligini oshirish tadbirlarini bajarish orqali markazlashgan issiqlik ta’minoti tizimlarida past haroratli | 2026-yil davomida | Respublika budjeti va boshqaruv servis kompaniyalari mablag‘lari | “Yagona buyurtmachi” IK (Z.Bazarov), tuman va shahar hokimliklari |

SNK6902

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | isitish tizimini joriy etish bo‘yicha pilot loyihalarni;<br>energiya samaradorligi tasdiqlangan ko‘p kvartirali uylarda markazlashgan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun chegirmalar taqdim qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;<br>amalga oshirilgan loyihalar doirasida energiya samaradorligini va resurslar tejamkorligini baholab borish mexanizmlarini joriy qilish. | | | |
| **53-maqsad: O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish** | | | | | |
| ***Ijro uchun asosiy mas’ul*** – *Transport boshqarmasi (A.Ubaydullayev)* | | | | | |
| 42. | Mahalliy va ichki yo‘llarni sement-beton qoplama asosida qurish va saqlash tizimini joriy etish. | Mahalliy va ichki yo‘llarni sement-beton qoplama asosida qurish. | 2026-yil davomida | Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari | Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (M.Saliyev), Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi (A.Yusupov), tuman hokimliklari |
| 43. | **Jamoat transporti tizimi**ni rivojlantirish. | **1.** Jamoat transportining **2 ta** yangi yo‘nalishlar tarmog‘ini tashkil etish.<br>**2.** Viloyatda jamoat transporti uchun jami **10 ta** avtobus xarid qilish.<br>**3.** Viloyat markazi Guliston shahri jamoat transportining brutto-shartnoma yo‘nalishlarida elektron to‘lovlar jozibadorligini oshirish va elektron to‘lovlar ulushini **60 foiz**ga yetkazish (hozir **40 foiz**).<br>**4.** Guliston shahrida brutto-shartnoma yo‘nalishlaridagi bekatlarni naqd pullarni qabul qiluvchi bir martalik elektron chipta sotishning o‘z-o‘ziga | 2026-yil davomida | Tadbirkorlik subyektlari mablag‘lari | Tuman va shahari hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | xizmat ko‘rsatuvchi **avtomatlashtirilgan infokiosklar** bilan jihozlash.<br>**5.** Guliston shahrida brutto-shartnoma asosida tashkil etilgan yo‘nalishlardagi barcha avtobuslarni **QR chipta**larni qabul qiluvchi **“QR reader”** qurilmalari bilan jihozlash. | | | |
| 44. | **Jamoat transporti infratuzilmasi**ni rivojlantirish. | **1.** Viloyatda **47 ta** oraliq bekatlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini tashkillashtirish.<br>**2.** Viloyatda **1 ta** avtovokzal va avtostansiyalar qurish va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish.<br>**3.** Avtobuslar harakatiga ustuvorlik berish maqsadida Guliston shahrida jamoat transporti uchun **3,6 km** alohida avtobus yo‘laklarini **barpo etish**. | 2026-yil davomida | Tadbirkorlik subyektlari mablag‘lari | Tuman va shahar hokimliklari |
| 45. | Umumiy foydalanishdagi **avtomobil yo‘llari hamda shaharlar va boshqa aholi punktlari** ko‘chalari holatini yaxshilash. | **1.** Ijtimoiy ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish hamda boshqa yo‘l dasturlari doirasida viloyatda **100 kmdan** ortiq umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish va ta’mirlash.<br>**2.** Viloyatdagi **4 tadan ortiq** ko‘prik inshootlarini qayta qurish va ta’mirlash. | 2026-yil davomida | Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida | Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi, (A.Yusupov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Kurbanov), tuman va shahar hokimliklari |
